



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinova, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinova, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	



OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI



Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich

NamDTU, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti

E-mail: marufxujaxonov@gmail.com



Axmedov Oybek Turg'unpulatovich

NamDTU, Biznesni boshqarish fakulteti

dekani o'rinbosari

E-mail: ahmedov4008166@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim sifatini oshirish hamda iqtisodiy diagnostika o'tkazishning xorij tajribasi asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy iqtisodchi olimlarning oliy ta'limni isloh qilish bo'yicha ilgari surgan nazariy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, diagnostika, Kaizen, Times Higher Education, sifat menejmenti, benchmarking, shaffof metodologiya.

Abstract. The article presents international experience in improving the quality of higher education and conducting economic diagnostics. It also analyzes the theoretical approaches of foreign economists aimed at enhancing and reforming the higher education system.

Key words: Higher education, diagnostics, Kaizen, Times Higher Education, quality management, benchmarking, transparent methodology.

Аннотация. В статье представлен зарубежный опыт повышения качества высшего образования и проведения экономической диагностики. Также проанализированы теоретические подходы зарубежных экономистов, направленные на совершенствование системы высшего образования.

Ключевые слова: Высшее образование, диагностика, кайдзен, Times Higher Education, управление качеством, бенчмаркинг, прозрачная методология.

KIRISH

Jahon amaliyotida oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning jadallashuvi, oliy ta'limning ommalashuvi hamda manfaatdor guruhlarining talab va ehtiyojlarining ortib borishi ushbu tizimda sifatni oshirish masalasiga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Oliy ta'lim sifatiga bo'lgan qiziqishning ortishiga bir qator omillar ta'sir qilgan. Eng asosiy omil — oliy ta'lim va davlat o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi, ya'ni ta'lim muassasalarining bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarilishi va ularga kengroq avtonomiya berilishidir. Ko'plab davlatlarda hukumat oliy ta'lim ustidan bevosita nazoratni kamaytirgan holda, universitetlarning mustaqilligini kengaytirmoqda. Bunda ta'lim sifati va uning iqtisodiy diagnostikasini samarali tashkil etish bo'yicha talablar kuchayib bormoqda.



Yevropa Ittifoqida oliy ta'lim sifatini oshirish quyidagi omillar ta'sirida shakllangan:

- oliy ta'lim muassasasi avtonomiyasining kuchayishi;
- oliy ta'limgacha bo'lgan ehtiyojning ortishi;
- oliy ta'lim muassasalari daromadlarida davlat mablag'lariga nisbatan aholi mablag'lari ulushining o'sishi;
- "ilmiy jamiyat" shakllanishi va oliy ta'limning mahalliy, mintaqaviy hamda Yevropa iqtisodiyotiga ta'sirining kuchayishi;
- "Yevropa ta'lim va tadqiqot hududi"ning yaratilishi (Bolonya jarayoni);
- oliy ta'limning globallasuvi va yevropalashuvi;
- ta'lim tizimida raqobat va marketing tamoyillarining rivojlanishi.

Mazkur omillar umumiy bo'lishiga qaramay, Yevropa davlatlarida oliy ta'lim va davlat o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yondashuvlar farq qiladi. Chunki G'arbiy Yevropa davlatlarining oliy ta'lim modeli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Angliyada oliy ta'lim muassasalari daromadlarining qariyb 50 foizi aholining to'lovlari hisobiga shakllansa, Skandinaviya davlatlarida bu ko'rsatkich 5 foizdan oshmaydi. Yevropaga nisbatan AQSH, Kanada va Yaponiya kabi taraqqiy etgan davlatlarda oliy ta'lim muassasalari mablag'larining 60 foizga yaqini xususiy sektor hisobidan ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

T. Gismadiya ta'kidlaganidek, XX asrning 70-yillarida kuzatilgan global iqtisodiy yuksalish sifatli xizmat ko'rsatishga bo'lgan talabning ortishiga olib kelgan. Shu bilan birga, oliy ta'lim sifatini oshirish ehtiyoji quyidagi omillar asosida shakllangan:

- davlat mablag'laridan samarali foydalanish zarurati;
- oliy ta'limga ajratiladigan davlat mablag'larining kamayishi;
- oliy ta'lim muassasalari avtonomiyasining kuchayishi;
- sifatli oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojning oshishi;
- talabalar safarbarligini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy yordamning kengayishi;
- oliy ta'lim va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayishi;
- xalqaro ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning kengayishi.

Buyuk Britaniyada 1980-yillarda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari natijasida oliy ta'lim tizimi standartlashtirildi va bu ta'lim sifatini boshqarishning samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qildi.

M. Brukes va N. Beket oliy ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy diagnostika tamoyillari asosida tahlil qilib, ularni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy guruhlariga ajratadi:

1. Siyosiy ta'sir kuchlari:

- oliy ta'lim oluvchilar sonini oshirish tashabbusi;
- universitetlar sonini ko'paytirish va ularni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati;
- o'quv dasturlari ustidan nazoratning kuchayishi;
- oliy ta'limni tartibga soluvchi markazlashgan nazorat tizimining takomillashtirilishi.

2. Iqtisodiy ta'sir kuchlari:

- talaba boshiga ajratiladigan mablag'larning optimallashtirilishi;
- xususiy sektor ulushining ortib borishi;
- to'lov-kontrakt tizimining takomillashuvi;
- ta'lim xarajatlarining o'sishi;
- nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ko'payishi;
- xalqaro ta'lim bozorida integratsiya jarayonlarining kuchayishi.

3. Ijtimoiy ta'sir kuchlari:

- abituriyentlar sonining ortishi;
- talabalarning ijtimoiy tarkibining xilma-xillashuvi;
- ta'lim shakllarining ko'payishi;
- ta'lim iste'molchilari talabalarining o'sib borishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot oliy ta'lim sifatini oshirish va iqtisodiy diagnostika bo'yicha xalqaro tajribani o'rganishga qaratilib, nazariy tahlil, qiyosiy (benchmarking) yondashuv, diagnostik baholash, kontent tahlili hamda sifatni kafolatlash modellari tahlilini o'z ichiga oldi. Tadqiqot davomida Boloniya modeli, TQM, Kaizen va QS, THE, ARWU reyting tizimlarining asosiy indikatorlari o'rganildi, rivojlangan davlatlar tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslandi. Shuningdek, oliy ta'limda iqtisodiy samaradorlik, resurslardan foydalanish, ilmiy salohiyat va boshqaruv tizimlari diagnostik jihatdan baholandi, Angliya va Frantsiya sifat modeli kabi konsepsiyalar



umumlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuvlar ta'lim sifatini boshqarishning samarali mexanizmlarini aniqlash, benchmarkingning ustuvor afzalliklarini belgilash va xalqaro reyting mezonlarining amaliy ahamiyatini asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masalan, Tinch okeani havzasi davlatlari (Avstraliya, Xitoy, Gong Kong, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Tayvan va Yangi Zelandiya)da siyosiy va iqtisodiy ta'sir kuchlarining umumiylik mavjud bo'lib, bu oliy ta'limni boshqarish strategiyalarining uyg'unlashuviga imkon yaratadi. Markazlashgan boshqaruv va davlat mablag'lari asosida faoliyat yurituvchi Yevropa mamlakatlari (Chexiya, Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Gretsiya, Gollandiya, Polsha va Turkiya) oliy ta'lim muassasalarida esa iqtisodiy omillar o'rtasidagi o'xshashlik seziladi. Shu sababli ushbu davlatlarda nodavlat universitetlarning ko'payishi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya qilinishi keng uchraydi. Janubiy Amerika mamlakatlarida aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi va iqtisodiy rivojlanishning jadallashuvi oliy ta'lim sifatiga ijtimoiy-madaniy omillarning yanada kuchli ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, jahon amaliyotida "sifat" tushunchasi oliy ta'lim tizimidagi inson resurslarini boshqarish va mehnatni tashkil etish jarayonida muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi. Oliy ta'lim sifatini ta'minlashda keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri — bu yalpi sifat menejmenti (Total Quality Management) hisoblanadi. UNESCO qo'llanmalarida ta'kidlanishicha, yalpi sifat menejmenti "uzluksiz yaxshilanish" tamoyili, mijoz ehtiyojlarini qondirish, strategik boshqaruv, sifat kafolatining aniq tizimi hamda rahbariyat tomonidan vakolatlarni oqilona taqsimlash kabi omillarga asoslanadi.

Van der Berge yalpi sifat menejmentini OTMdagi barcha xodimlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali ta'lim oluvchilarning ehtiyojini yuqori darajada qondirishga qaratilgan samarali boshqaruv tizimi sifatida talqin qiladi. A. Karimov va L. Peregudovlar esa yalpi sifat menejmentini OTMning barcha bo'linmalari va xodimlari faoliyatining sifatga yo'naltirilgan uyg'un tizimi sifatida izohlaydilar. Demak, yalpi sifat menejmenti oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida sifat tamoyillarining barcha tizimlarda izchil qo'llanilishini anglatadi. Ushbu modelning markazida mijoz — ya'ni ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini chuqur anglash va ularni qondirish mas'uliyati turadi.

Fikrimizcha, yalpi sifat menejmentini oliy ta'limda qo'llash jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir qator metodik jihatlar mavjud:

- yalpi sifat menejmenti "mijoz ehtiyojini qondirish" tamoyiliga asoslangani bois, oliy ta'lim tizimida "mijoz" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda;

- model ko'proq o'quv jarayoniga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari uning iqtisodiy bahosini to'liq miqdoriy ifodalashni cheklashi mumkin;

- samarali qo'llash uchun OTM miqyosida faol muloqot tizimini shakllantirish talab etiladi, chunki qaror qabul qilish jarayonida barcha bo'g'in xodimlarining ishtiroki sifat menejmentining barqarorligini oshiradi.

Shu bilan birga, Kayzen yoki uzluksiz sifatni yaxshilash (Continuous Quality Improvement) metodi ham oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodda rahbardan tortib quyi pog'onagacha barcha xodimlarning jarayonlarni takomillashtirishga jalb etilishi ustuvor hisoblanadi. Kayzen metodi OTMdagi samarasiz faoliyat turlarini qisqartirish, yangiliklarni joriy etish, eksperimental tajribalarni qo'llash va talabalarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yo'naltirilgan. "Kaizen" atamasi yaponcha bo'lib, "rivojlanish" ma'nosini bildiradi va oliy ta'lim tizimida 1990-yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Mazkur metod AQSHdagi Arizona Universitetida ayrim fanlar doirasida, jumladan farmatsevtika sohasida ilmiy-tadqiqot jarayonlarini takomillashtirishda ham samarali qo'llangan.

Yuqorida taqdim etilgan sifatni oshirish va baholashga qaratilgan diagnostik metodlar bo'yicha mutaxassislar o'rtasida yagona yondashuv shakllanmagan bo'lsa-da, mavjud ilmiy izlanishlarning davom ettirilayotgani ularning takomillashuviga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon oliy ta'limda diagnostik benchmarking metodlarini joriy etishni talab etmoqda.

Ma'lumki, benchmarking dastlab biznes sohasi bilan bog'liq atama sifatida shakllangan. Chunki benchmarking metodi 1980–1990-yillarda bir qator kompaniyalar faoliyatida katta samaradorlik ko'rsatgan va ularning barqarorligini ta'minlashga yordam bergan. Masalan, dunyodagi yirik kompaniyalardan biri bo'lgan Xerox 1979-yilda yapon kompaniyalarining texnologik ustunligi va kuchli raqobati tufayli murakkab vaziyatga duch kelganida, kompaniya boshqaruvi faoliyat jarayonlarini chuqur qayta ko'rib chiqishga kirishdi. O'sha davrda yapon kompaniyalari mahsulotlarining tannarxi past, sifati esa yuqori bo'lgani bilan ajralib turardi.

Xerox o'zining barcha ish jarayonlari va amaldagi operatsiyalarini yapon hamkor kompaniyalarining ilg'or tajribasi bilan qiyoslab o'rgandi. Ular nimada ustunlikka erishgani, qanday boshqaruv qarorlarini qo'llagani, jarayonlarni qanday samarali tashkil etgani batafsil tahlil qilindi. Natijada Xerox ilg'or tajribalarni o'zlashtirib, ularni o'z korporativ amaliyotiga moslashtirdi va o'z faoliyatini sezilarli darajada yaxshiladi. Kompaniya nafaqat



inqirozdan chiqdi, balki 1991-yilda AQSHning nufuzli Malcolm Baldrige National Quality Award mukofotiga sazovor bo'ldi. Mazkur yutuq aynan benchmarking metodining to'g'ri qo'llanilgani bilan izohlanadi.

Umuman olganda, benchmarking inglizcha bench (gorizontal tayanch) va mark (belgi) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, dastlab tarozida etalon toshlar yordamida yukning og'irligini aniqlash ma'nosini ifodalagan.

Ko'plab adabiyotlarda benchmarking — bu qiyosiy tahlil, o'zaro o'rganish va shu asosda tashkilotning zaif jihatlarini takomillashtirish jarayoni, deb izohlanadi. Benchmarkingni qo'llayotgan har bir oliy ta'lim muassasasi o'ziga mos va turdosh faoliyat yurituvchi hamkorni tanlashi maqsadga muvofiqdir. Yevropa OTMlarida benchmarking tajribalarni izchil taqqoslash, o'zini o'zi baholash va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan samarali metod sifatida talqin qilinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, benchmarking metodining oliy ta'limda qo'llanilishi globallashtirish jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Chunki har qanday OTMning raqobatbardosh bo'lishi uchun sifat masalasiga e'tibor qaratishi, ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganishi va ularni milliy sharoitga moslashtirishi zarur.

Oliy ta'limda keng qo'llaniladigan xalqaro benchmarking turi asosan dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida OTM faoliyatini baholashga xizmat qiladi. OTMlarning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi ham benchmarking orqali shakllantirilgan baholash mezonlariga tayanadi. Eng mashhur reyting tizimlariga:

- Times Higher Education (THE),
- QS (Quacquarelli Symonds),
- ARWU (Shanghai Academic Ranking of World Universities)

kabilar kiradi. Ushbu reyting tizimlari ta'lim sifatini, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini, xalqaro ochiqlikni va OTMning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash orqali jamoatchilik va ish beruvchilarning manfaatlarini inobatga oladi.

QS (Quacquarelli Symonds) reyting agentligi 1990-yilda Nuntsio Kvakvarelli tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2004-yildan boshlab har yili dunyoning eng yaxshi universitetlari reytingini e'lon qilib keladi. Hozirda kompaniyaning Yevropa, Osiyo va Amerika qit'alarida ofislari mavjud.

QS reytingida indikatorlarning ulushi quyidagicha taqsimlanadi:

- akademik reputatsiya — 40–50%;
- ish beruvchi reputatsiyasi — 10%;
- o'qituvchilarning ilmiy ishlari bo'yicha tsitatalanish darajasi — 20%;
- o'qituvchi–talaba nisbati — 20%;
- xorijiy talabalar ulushi — 5%;
- xorijiy o'qituvchilar ulushi — 5%.

Ko'rinib turibdiki, OTM faoliyatiga baho berishda ta'lim sifati markaziy o'rinni egallaydi. Qolgan indikatorlar ham bilvosita ta'lim sifatini mustahkamlaydi (1-jadval).

1-jadval. QS (Quacquarelli Symonds) tizimida baholash indikatorlari

№	Baholash indikatorlari	Ulushi, foiz
1	Akademik reputatsiya	40
2	Ish beruvchi reputatsiyasi	10
3	OTM o'qituvchilari ilmiy ishlarining tsitatalanganligi	20
4	O'qituvchi va talaba nisbati	20
5	Xorijiy talabalar ulushi	5
6	Xorijiy o'qituvchilar ulushi	5

Times Higher Education (THE) tashkiloti Londonda joylashgan bo'lib, QS agentligidan mustaqil tashkilot sifatida ajralib chiqqan va 2010-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalarining reyting natijalarini e'lon qilib keladi. THE reytingida ta'lim sifati to'g'ridan-to'g'ri 30 foiz ulushga ega bo'lsa-da, qolgan indikatorlar ham ta'lim sifatining turli jihatlarini bilvosita chuqur yoritib beradi. Bu indikatorlar OTMning ilmiy salohiyati, xalqaro ochiqligi va ta'lim muhiti darajasini kompleks ravishda baholash imkonini yaratadi (2-jadval).

2-jadval. THE tizimida baholash indikatorlari

№	Baholash indikatorlari	Ulushi, foiz
1	Ta'lim (o'quv muhiti)	30
2	Ilmiy tadqiqotlar (daromad va reputatsiya)	30
3	Iqtiboslilik (ilmiy-tadqiqot natijalarining e'tirof etilishi)	30
4	Xalqaro hamkorlik (xodimlar, talabalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati)	7,5
5	Sanoatdan tushadigan daromad (bilimlarni rivojlantirish)	2,5



ARWU reytingi Shanxay Jiao Tong universiteti tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 2009-yildan buyon shaffof metodologiya va mustaqil manbalarning ob'ektiv ma'lumotlari asosida dunyoning eng yaxshi oliy ta'lim muassasalari reytingini e'lon qilib keladi. Mazkur reytingning asosiy e'tibori ilmiy yutuqlar, ilmiy-tadqiqot natijadorligi va akademik salohiyatga qaratilgan.

Shanxay reytingiga, odatda, o'qituvchilari yoki bitiruvchilari Nobel mukofoti yoki boshqa nufuzli ilmiy mukofotlarga ega bo'lgan, ilmiy ishlari xalqaro ma'lumotlar bazalarida indekslangan universitetlar kiradi. Mazkur reyting tizimi ilmiy natijalarga yuqori talab qo'yishi bilan ajralib turadi.

Ayrim manbalarda Shanxay reytingining baholash mezonlari bo'yicha muhokamalar mavjud bo'lsa-da, bu reytingning asosiy afzalligi — uning ilmiy yutuqlarni aniq, miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholashidir. Bunda ilmiy salohiyatning xalqaro tan olinishi, ilmiy maktablarning kuchi, fundamental fanlar bo'yicha yutuqlar ham hisobga olinadi. Demak, reytingning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarining ilmiy raqobatbardoshligini baholashda muhim manba sanaladi (3-jadval).

3-jadval. ARWU tizimida baholash indikatorlari

№	Baholash indikatorlari	Ulushi, foiz
1	Bitiruvchilar orasida Nobel mukofoti laureatlari hamda boshqa mukofot va medallar sovrindorlarining soni	10
2	O'qituvchilar orasida Nobel mukofoti laureatlari hamda boshqa mukofot va medallar sovrindorlarining soni	20
3	Olimlarning 20 ta asosiy fan kategoriyalari bo'yicha tsitatalanganligi	20
4	Ilmiy-tadqiqotlar natijalari	20
5	Tabiiy, texnika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy nashrlar	20
6	OTMning akademik darajasi (ko'lami bilan solishtirilgan holda)	10

QS reytingidagi ustuvorliklardan biri — injeneriya, tabiiy fanlar va boshqa yo'nalishlar bo'yicha predmetli reytinglarning mavjudligi bo'lib, bu OTMlarning ma'lum sohalar bo'yicha kuchli tomonlarini aniq baholash imkonini beradi. Biroq reytingning asosiy ko'rsatkichlaridan biri — fokusli guruhlariga asoslangan universitet reputatsiyasining 50 foizni tashkil etishi — yangi tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalarining reytingda yuqori o'rinlarni egallashini murakkablashtiradi.

THE va ARWU xalqaro reyting tizimlarida ham o'ziga xos ustuvorliklar bilan bir qatorda muhokamaga sabab bo'ladigan jihatlari mavjud (4-jadval).

4-jadval. Xalqaro reyting agentliklarining ustuvorliklari va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlari

Reyting agentligi	Ustuvorliklar	E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlari (ijobiy lashtirilgan shaklda)
QS (Quacquarelli Symonds)	Injeneriya, tabiiy fanlar va boshqa sohalar bo'yicha predmetli reytinglarning mavjudligi	Universitet reputatsiyasining 50 foiz ko'rsatkich orqali baholanishi yangi OTMlar uchun o'sish jarayonini bosqichma-bosqich kechishini talab qiladi
THE (Times Higher Education)	Ob'ektiv metodologiyaga asoslanadi; texnik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish imkonini beradi	Ingiliz tilida faoliyat yurituvchi mamlakatlar ko'proq ustunlikka ega bo'lishi, boshqa davlat OTMlari uchun metodologiyani moslashtirish zaruratini tug'diradi
ARWU (Academic Ranking of World Universities)	Ilmiy tadqiqotlar sifati va infratuzilmasiga katta e'tibor qaratadi; talabalarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish imkonini yaratadi	Nobel mukofoti kabi yuqori ilmiy natijalarga ega mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati barcha OTMlarda bir xil bo'lmasligi mumkin; ta'lim jarayoni va talaba sharoitlari reytingda alohida ko'rsatkich sifatida baholanmaydi

Shu bilan birga, jahonda amal qilayotgan oliy ta'lim sifatini ta'minlovchi milliy tizimlar o'zining ko'plab jihatlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi quyidagi mezonlar asosida guruhlanadi: oliy o'quv yurtlari soni, oliy ta'limni boshqarish tarkibi, oliy o'quv yurtlarining tasniflanishi va ularning tashkiliy avtonomiya darajasi.

Ma'lumki, oliy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan Boloniya modeli va uning asosiy tamoyillari 1999-yilda Yevropaning 29 mamlakati tomonidan qabul qilingan. Ushbu modelning bosh maqsadi — Yevropa ta'lim tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'limning xalqaro maydondagi obro'sini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashdan iborat. Mazkur islohotlar natijasida ko'plab mamlakatlarda siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan parallel tarzda ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarining yaqinlashuvi kuzatildi.



Boloniya jarayoni ushbu uyg'unlashuv jarayonining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boloniya modeli quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritadi:

- oliy o'quv yurtlarining akademik va ilmiy-tadqiqot faoliyati ustidan markazlashgan nazoratning qisqarishi, ularning mustaqilligi va javobgarligining kengayishi;
- ta'limni boshqarish tizimida davlat strukturalari bilan bir qatorda mustaqil oliy o'quv yurtlari hamda ta'lim sifatini baholovchi tashkilotlarning mavjudligi;
- ta'lim sifatini baholash va ta'minlash uchun qulay, o'zaro solishtiriladigan mezonlarning shakllantirilishi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarining kengayishi;
- baholash jarayonida oliy o'quv yurtlarining to'laqonli va faol ishtiroki;
- ta'lim muassasalarida o'zini o'zi baholash tizimining joriy etilishi va ushbu hisobotlarning tashqi auditorlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosalari bilan solishtirib borilishi.

Mazkur tamoyillar oliy ta'limning ochiqligi, mas'uliyati va sifatga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan Boloniya modeli ichki va tashqi baholash mexanizmlarining uyg'unlashuviga asoslanadi. Oliy ta'lim muassasalarining o'zlari tomonidan tashkil etiladigan sifatni baholash tizimlari o'zini o'zi tartibga solishning istiqbolli va samarali shakli bo'lib, bu jarayon har bir OTMdand konseptual rejasini, baholash strategiyasi va dasturini, maqsad va vazifalarini, mavjud resurslarga mos ravishda ta'lim sifatiga erishish metodologiyasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. OTMlarda sifatni baholashning tarixan shakllangan bir qator modellari mavjud bo'lib, "Angliya modeli" ichki baholashga, "Frantsiya modeli" esa tashqi baholashga tayanadi, amaliyotda esa bu ikki yondashuvning afzalliklarini birlashtiruvchi kombinatsiyalashgan modellardan keng foydalaniladi. Hozirgi kunda Yevropa oliy ta'lim makonida ta'lim sifatini kafolatlashning uch asosiy modeli — sifatni baholash tizimi, akkreditatsiya tizimi va sifat auditi tizimi qo'llanadi. Frantsuz modelida oliy ta'lim muassasasining ichki o'zini o'zi baholashiga asos sifatida qaralib, tashqi baholash davlat yoki jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi; ingliz (anglosakson) modelida esa ichki baholash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, tashqi ekspertiza kasbiy va ijtimoiy talablar asosida qo'shimcha sifat mezonini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari, Filippin va Tayvanda keng qo'llanadi. Shu bilan birga, OTMlar faoliyatini baholashning xalqaro tizimlari mamlakatimizda amal qilayotgan reyting tizimlaridan farq qilishi tabiiy bo'lib, mavjud reyting jarayonlarida davlat manfaatlarining ustuvorligi kuzatiladi. Bu esa xolislikni ta'minlash uchun jamoatchilik manfaatlariga asoslangan mexanizmlarni bosqichma-bosqich kuchaytirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xalqaro reytinglarda manfaatdor tomonlar fikrining inobatga olinishi tizimning shaffof va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, agar oliy ta'lim muassasalarida yangilanishlarni sekinlashtiruvchi omillar mavjud bo'lsa, benchmarking metodini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Benchmarking — OTM faoliyatining barcha jihatlarini, jumladan o'quv dasturlari, ilmiy faoliyat, boshqaruv jarayonlari va infratuzilmani muntazam tahlil qilish, rivojlanish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va ularni o'z vaqtida takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali usuldir. Ushbu metod orqali doimiy o'sish strategiyasi shakllantiriladi, ilg'or xalqaro tajribalar milliy sharoitga moslashtiriladi va sifatni izchil yuksaltirish imkoniyati yaratiladi. Hamkorlik, tajriba almashish va ochiq muloqot oliy ta'lim jarayonining muhim qismidir. Shuni inobatga olgan holda, benchmarking oliy ta'lim tizimida barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi eng samarali mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Багаутдинова Н. Г. Менеджмент качества в вузе // Ж. Стандарты и качество. — М., 2003. — № 1. — С. 86–88.
2. Басовский Л. Е., Лунёва А. М., Басовский А. Л. Финансовая диагностика предприятия и поддержка управленческих решений. URL: https://www.cfin.ru/finanalysis/reports/economic_analysis.shtml
3. Васильева Е. Ю. Системный мониторинг качества образовательной среды вуза // Ж. Университетское управление: практика и анализ. — М., 2008. — № 2. — С. 24–35.
4. Вахабов А. В. Олий таълим сифатини оширишнинг хориж таърибасидан Ўзбекистон олий таълим тизимини ислох этишда фойдаланиш имкониятлари // Олий таълим сифати иқтисодий диагностикаси: жаҳон амалиёти ва миллий хусусиятлар: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. — Наманган: НамДУ, 2019. — Б. 404.
5. Axmedov O. (2023). Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini o'ziga xos xususiyatlari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(11–12).
6. Turgunpulatovich A. O. (2025). Assessment Methods of Use of Innovations in Business Subjects. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, 14(10), 1–6. ISSN: 2277-3630. Impact Factor: 8.036.
7. Turgunpulatovich A. O. (2025). Econometric Analysis and Assessment of Investment Use Efficiency of Business Subjects in Namangan Region. Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review, 14(10), 11–16. ISSN: 2319-2836. Impact Factor: 8.071.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>